

**PBL – Project-based yondashuvi orqali 4K ko'nikmalarini rivojlantirish**

***Baxronova Muxlisa Axmedovna***

*A. Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti doktoranti*

*Telefon: 97 304 18 89*

*[mukhlis0618@gmail.com](mailto:mukhlis0618@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola hozirgi kunda chet tillarini o'qitishda zamonaviy yondashuvlardan biri bo'lgan PBL – Project based yondashuvi, ya'ni loyiha asoslangan yondashuv haqida boshlang'ich ma'lumotni beradi. Bu yondashuvning prinsiplari haqida tanishtirib o'tadi. Uning hozirgi zamonaviy ta'limdagi o'rni, ijobjiy jihatlari haqida fikr yuritiladi. 4K ko'nikmalarining asosiylari bo'lmish tanqidiy va mantiqiy-ijodiy fikrlash, kollaboratsiya, kommunikatsiya ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyatiga urg'u berilgan.

**Kalit so'zlar:** Project-based yondashuvi, loyiha, 4K ko'nikmalar, metod, yondashuv

Bugungi kun o'quvchilari 21-asrning ilmiy va texnologik jihatdan jadal rivojlanishi davrida yashashmoqda. Shunday ekan, 4K ko'nikmalarini egallahga undaydigan usullar va metodlardan foydalangan holda darslarni tashkillashtirishning ahamiyati katta. 4K (ing. tilidan “creative thinking, critical thinking, collaboration, communication”) deb ataluvchi bu ko'nikmalar va boshqa zamon taqozo qiladigan malakalarni egallahda, albatta, chet tillarini o'rganish muhim rol o'ynaydi. Shunday ekan, chet tilini o'qitishda o'quvchilarining 4K ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi usullardan foydalanish maqsadga muvofiq. Shunday yondashuvlardan biri Project-based, ya'ni Loyiha asosidagi yondashuv (PBL) hisoblanadi.

Amerikaning tadqiqot va loyihalarni amalga oshirishga asoslangan Bak instituti Project-based yondashuviga quyidagicha ta'rif beradi: “Project-based yondashuvi asosidagi ta'lim tizimli o'qitish metodi bo'lib, mukammal topshiriq va

mahsuldorlikdan iboratdir. U o'quvchilarni murakkab, autentik muammolarni tadqiqot jarayoni orqali o'rganishga, ko'nikmalarni shakllantirish jarayoniga jalg qiladi<sup>1</sup>.” Aslini olganda, PBL nazariyasining kelib chiqishi uzoq tarixga, ya'ni Jon Devining “bajarib o'rganish” – aniq maqsad bilan amaliy faoliyat asosida ta'lif olish nazariyasi asosiga qurilgan bo'lib, 1918-yilda Uilyam Kilpatrik o'zining “Loyiha metodi” maqolasida, Devi olib kirgan bu falsafani “o'qitish tajriba asosiga qurilishi kerak, va samarador natijani ko'zlab tashkillashtirilishi lozim” mazmunida mukammallashtiradi<sup>2</sup>. Bugungi kunga kelib esa, PBL - ya'ni loyihaga asoslangan metod alohida bir yondashuv sifatida chet tilini o'qitishda o'quvchilarning o'rganayotgan ma'lumotlarini amaliyotda qo'llash bilan uyg'unlashuvi orqali yanada takomillashib bordi. Aslini olganda, bu yondashuv fizika, biologiya kabi STEM fanlarida yuqori natijani beradi, va tarixan shu yo'nalishdagi fanlarda qo'llanilishi ko'zda tutilgan. Biroq loyiha asosidagi yondashuvni chet tillarini o'qitishda qo'llaganda ham yaxshi samara berishi xorijiy davlatlar tajribasi orqali sinaldi. Shuni ta'kidlash mumkinki, chet tillarini o'qitishda bajarib o'rganishni targ'ib qiluvchi bu yondashuv, bir vaqtning o'zida o'quvchilarda ham tilni, ham ko'nikmalarni, ham ko'nikmalarni rivojlantiradi. Bundan tashqari o'quvchilarda 4Kko'nikmalari ham rivojlanib boradi.

Alohida yondashuv sifatida Project-based yondashuvining STEM fanlari uchun prinsiplari ishlab chiqildi<sup>3</sup>. Shundan kelib chiqib chiqib, chet tili o'qitishda PBL yondashuvi quyidagi prinsiplarga amal qiladi deb hisoblaymiz.

### **1. Maqsadlilik va autentiklik**

Loyiha asosidagi dars aniq bir maqsadga yo'naltirilgan, o'quvchilarning hayoti, qiziqishlari, madaniyati bilan bog'liq bo'lishi kerak. Dars o'quvchining real hayotini ask ettirib, uni mazmunan anglashga xizmat qilmog'i lozim. Masalan, loyiha hayvonlar va ularning parvarishi, atrof-muhit yoki oila bilan bog'liq bo'lishi

---

<sup>1</sup> [http://www.bie.org/about/what\\_pbl](http://www.bie.org/about/what_pbl)

<sup>2</sup> Lungu I “Project-based learning as an efficient way of studying English for specific purposes”, Logos Universality Mentality Education Novelty Philosophy and Humanistic Sciences, 2022, Volume 10, Issue 1, pp. 45-52

<sup>3</sup> Smith, K.; Maynard, N.; Berry, A.; Stephenson, T.; Spiteri, T.; Corrigan, D.; Mansfield, J.; Ellerton, P.; Smith, T. Principles of Problem-Based Learning (PBL) in STEM Education: Using Expert Wisdom and Research to Frame Educational Practice. *Educ. Sci.* **2022**, 12, 728. <https://doi.org/10.3390/educsci12100728>

mumkin.

## **2. Darsning o'quvchiga yo'naltirilganligi**

Bunday yondashuv orqali dars o'tganda asosiy vazifani va mas'uliyatni o'quvchi o'z zimmasiga olishi kerak. Ularga erkin fikr yuritishiga, mavzuga tahliliy yondashishiga zamin yaratilishi lozim. O'qituvchi esa o'quvchilarga mavzu yuzasidan aniq tavsiyalar beradi, darsning oxirida kutilayotgan natija va dars mezonlari bilan tanishtiradi.

## **3. Hamkorlik**

Ko'p hollarda PBL o'quvchilardan guruhlarda ishlashni talab etadi. Biroq, bunda gurh a'zolari vazifalarini taqsimlab olishi ham muhim. Shuning uchun nafaqat o'quvchi-o'quvchi hamkorligi, balki o'quvchi-o'qituvchi hamkorligi ham katta ahamiyatga ega.

## **4. Loyihaning o'quv dasturi bilan mutanosibligi**

Bu ham muhim prinsiplardan biri bo'lib, loyiha uchun tanlangan mavzu o'quv dasturiga kiritilgan fanlardagi mavzular bilan mutanosib bo'lsagina, o'quvchilarda alohida qiziqish uyg'otadi. Buning ustiga bu boshqa fanlarni ham yaxshi tushunib olishiga amaliy ko'mak vazifasini o'taydi, ya'ni fanlararo bog'liqlikni ta'minlaydi. Masalan, loyiha doirasida o'quvchidan xaritalar bilan ishlash so'ralayotgan bo'lsa, u avvalo, geografiya (yoki Science) darslarida xaritalar bilan ishlagan, va bu unga tanish mavzu bo'lishi kerak.

## **5. Loyihaning izlanishga asoslangan bo'lishi**

O'quvchilar loyiha doirasida izlanishi, turli savollar berishi, kichik-kichik tadqiqotlar o'tkazishi, va shu orqali o'zlari va loyihalari uchun yangilik kashf qilishi muhim sanaladi. Shundagina o'quvchining tanqidiy fikrlash ko'nikmasini rivojlantirishga erishiladi.

Yuqoridagi prinsiplardan ko'rinish turibdiki, PBL asosidagi dars shunchaki bo'limning bir qismidangina iborat bo'lgan, "loyiha bajarish" emas, balki o'quvchilarni hamkorlikda ishlashga undaydigan, ularni hayotiy tajribalar bilan

uzviy bog'laydigan<sup>4</sup>, ijodiy, mantiqiy hamda tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga hissa qo'shadigan yondashuv hisoblanadi.

Turli islohotlar samarasi o'laroq, hozirgi zamonaviy chet tili o'qituvchilari darsda o'quvchi o'z fikrini erkin ifodalay olishi, o'rgangan bilimlarini haqiqiy hayotda ham samarali qo'llay olishi uchun an'anaviy dars o'tish uslubidan ta'limning markazida o'quvchi qo'yiladigan, noan'anaviy usul va metodlarning ahamiyati katta ekanligini tushunib yetmoqdalar.

**Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Crespí, P., García-Ramos, J. M., & Queiruga-Dios, M. (2022). Project-Based Learning (PBL) and Its Impact on the Development of Interpersonal Competences in Higher Education. *Journal of New Approaches in Educational Research*, 11(2), 259-276. doi: 10.7821/naer.2022.7.993
2. Lungu I "Project-based learning as an efficient way of studying English for specific purposes", Logos Universality Mentality Education Novelty Philosophy and Humanistic Sciences, 2022, Volume 10, Issue 1, pp. 45-52
3. Smith, K.; Maynard, N.; Berry, A.; Stephenson, T.; Spiteri, T.; Corrigan, D.; Mansfield, J.; Ellerton, P.; Smith, T. Principles of Problem-Based Learning (PBL) in STEM Education: Using Expert Wisdom and Research to Frame Educational Practice. *Educ. Sci.* 2022, 12, 728. <https://doi.org/10.3390/educsci12100728>
4. [http://www.bie.org/about/what\\_pbl](http://www.bie.org/about/what_pbl)
5. Baxronova Matluba Axmedovna. (2022). BADIY ASARLARGA KO'CHGAN HAYOT SABOQLARI. *Conferencea*, 401–404. Retrieved from <https://conferencea.org/index.php/conferences/article/view/640>
6. Uraeva Darmon Saidakhmedovna, and Bakhranova Matluba Akhmedovna. "THE USAGE OF DISEASE NAMES IN LITERATURE AND THEIR DERIVATION". *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact Factor: 7.429*, vol. 12, no. 06, June 2023, pp. 21-24,

---

<sup>4</sup> Crespí, P., García-Ramos, J. M., & Queiruga-Dios, M. (2022). Project-Based Learning (PBL) and Its Impact on the Development of Interpersonal Competences in Higher Education. *Journal of New Approaches in Educational Research*, 11(2), 259-276. doi: 10.7821/naer.2022.7.993

<http://www.gejournal.net/index.php/IJSSIR/article/view/1799>.

7. Akhmedovna, Bakhronova M. "Life Lessons and Literary Works." *International Journal on Integrated Education*, vol. 5, no. 6, 2022, pp. 213-217.